O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI

NAMANGAN VILOYAT
HOKIMIYATI

URBANIZATSIYA VA SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH RESPUBLIKA MARKAZI

INSARD PROJECTS
ARCHITECTURE | URBAN PLANNING | HERITAGE RESTORATION

CHODAK
The Valley of Adventures

NAMANGAN VILOYATI, POP TUMANI, GULISTON MFY
CHODAK TURIZM MARKAZINI TASHKIL QILISH BO'YICHA

MASTER REJA LOYIHASI

(HUDUDNI RIVOJLANISH KONSEPSIYASI)



Salohiyati yuqori bo'lgan joylarda master-rejalar asosida turizm maskanlari barpo etiladi. Bunday hududlar infratuzilmasini yaxshilash uchun joriy yilda respublika byudjetidan yirik mablag' yo'naltiriladi. O'zbekistonning milliy turizm brendini yaratish zarur.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

LOYIHALASHGA ASOS

2025-yil, Prezidentimiz tomonidan “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot” yili deb e'lon qilindi. Ushbu qaror mamlakatimizda ekologik muammolarga e'tiborni yanada kuchaytirish va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirish maqsadida qabul qilindi. Yashil iqtisodiyotning rivoji, atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslarni samarali boshqarish bugungi kunda nafaqat iqtisodiyot, balki butun insoniyat uchun muhim masalaga aylangan. Prezidentimizning ushbu qarori, mamlakatimizning ekologik barqarorligini ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha muhim bosqichlarni belgilab berdi.

Aynan shu qaror asosida, barcha sohalarda, xususan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur prinsiplar Chodak qishlog'iga dam olish hududlarini konservatsiya qilish loyihaida ham o'z aksini topadi. Navoiy viloyati, Guliston mahallasi, Chodak qishlog’I o‘zining betakror tabiati, boy flora va fauna, hamda yurtimizning go‘zal manzaralariga boy hududi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda dam olish va turizm imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu joy nafaqat mahalliy aholi, balki chet ellik sayyohlar uchun ham jozibali.

> “Dam olish hududlarimizni saqlash va rivojlantirish, kelajak avlodlarga go‘zal va toza tabiatni meros qilib qoldirish – bizning burchimizdir.”
>
> **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

LOYIHA MAQSADI VA VAZIFALARI

LOYIHANING UMUMIY MAQSADI:
Chodak qishlog'idagi dam olish hududlarini konservatsiya qilish orqali biz atrof-muhitni asrash va barqaror rivojlanish yo‘lidagi maqsadlarimizga erishishni nazarda tutamiz. Bunda, Prezidentimizning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilidagi qaroriga hamohang ravishda, bu loyiha ekologik toza, iqtisodiy samarali va ijtimoiy foydali bo‘lishini ta'minlashni maqsad qilganmiz. Konservatsiya ishlari natijasida, nafaqat tabiiy boyliklar saqlanadi, balki mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga ham katta hissa qo‘shiladi. Shuningdek, bu loyiha, kelajak avlodlarga saqlanib qolgan toza va go‘zal tabiatni taqdim etish, ularni ekologik mas'uliyatga o‘rgatish, hamda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga tatbiq etishning yorqin namunasiga aylanadi.

- **Tabiiy resurslarni asrash va boshqarish:** Chodak qishlog‘idagi tabiiy resurslardan, shu jumladan, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan saqlash. Shu bilan birga, ekosistemalarning barqarorligini ta'minlash uchun zarur choralar ko‘riladi.

- **Ekologik toza infratuzilma yaratish:** Yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini o‘rnatish. Bu choralar “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni ta'minlaydi.

- **Turizm va dam olish hududlarini rivojlantirish:** Tabiiy muhitni saqlashni birlashtirib, ekologik turizmni rivojlantirish. Chodak qishlog‘idagi dam olish hududlarini modernizatsiya qilish va sayyohlar uchun qulay, ekologik jihatdan toza muhitda xizmatlar taqdim etish.

- **Mahalliy aholini jalb qilish va ish o‘rinlari yaratish:** Loyihaning amalga oshirilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi.

- **Edukatsiya va ekologik ongni oshirish:** Mahalliy aholi va sayyohlar o‘rtasida ekologik ongni oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha targ‘ibot va o‘quv dasturlarini tashkil etish.

MUNDARIJA

Kirish.....**0-1**
Taqdimot tarkibi (Mundarija) **3-4**

I-BOB. HUDUDNING JORIY IQTISODIY-IJTIMOIY HOLATI BO‘YICHA TAHLIL
1.1. Master-reja hududining joylashuvi va umumiy ma’lumotlar.....**6-7**
1.2. Hududning iqlim xususiyatlari.....**8**
1.3. Hudud relyef xususiyatlari **9**
1.4. Hududning tarixiy rivojlanishi va saqlanib qolgan madaniy me’ros obyektlari **10**
1.5. Hududiy yerdan foydalanish strukturasining tahlili **11**
1.6. Hududning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar **12**
1.7. Yashil maydonlar ulushi va qoplanganlik holati **13-14**
1.8. Mavjud flora va fauna.....**15**
1.9. Ochiq suv maydonlari.....**16**
1.10. Mavjud muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalari tahlili.....**17**
1.11. Iqtisodiyot tarmoqlarining hozirgi holati va salohiyati, jumladan xizmatlar sohasi tahlil qilinadi.....**18**
1.12. Aholi, manfaatdor idora va tashkilotlar bilan suhbat (hokimiyat, biznes, mahalla faollari) **19-20**
1.13. Master-reja ishlab chiqish uchun tanlangan hududga qo‘shimcha ravishda 50 ga maydonga kontseptsiya ishlab chiqish **21**
1 - Vazifa natija xulosasi

II-BOB. “HUDUDNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH SALOHIYATI VA ZAXIRALARI”
2.1. Loyiha hududining iqtisodiy rivojlanish salohiyatini aniqlash **24-26**
2.2. Yuqori daromadli investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari **27-28**
2.3. Transport va logistika imkoniyatlari **29-30**
2.5. Turizm yo’nalishi tahlili, turlarini funksional bo`linishi hamda imkoniyatlari **31-32**
2.6. Mavjud iqtisodiy faoliyat va mahalliy resurslar tahlili (ishchi kuchi, malaka darajasi, yo’nalishlari) **33-34**
2.7. Tuman iqtisodiy profili tahlili va shahar konteksti bilan bog‘liqligi **35**
2.8. Xalqaro tajriba (o‘xshash rivojlanish darajasiga ega shaharlar misolida) **36-38**
2.9. 2025, 2027, 2029 yillarga qurilish talabining maydon bo‘yicha prognozlari **39**
2 - Vazifa natija xulosasi

III-BOB. “HUDUDNI RIVOJLANTIRISH TASAVVURLARI VA MAQSADLARI”
3.1 Manfaatdor tomonlar bilan kelishgan holda hududni rivojlantirishning kontseptual yo‘nalishlari **42-43**
3.2 Yaqin (2025), o‘rta (3 yilgacha), o‘rta-uzoq(3–5 yil) muddatda amalga oshiriladigan ishlar **44**
3.3 Investitsiyalar va infratuzilmani yaxshilash choralari **45**
3 - Vazifa Natija Xulosasi

LOYIHA 6 TA ASOSIY VAZIFADAN TASHKIL TOPGAN

HUDUDNING JORIY IQTISODIY – IJTIMOIY HOLATI BO’YICHA TAHLILI.

HUDUDNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH SALOHIYATI VA ZAHIRALARI.

HUDUDNI RIVOJLANTIRISH TASAVVURLARI VA MAQSADLARI.

MUNDARIJA

IV-BOB. TAKLIF ETILAYOTGAN INVESTITSIYA VA INFRATUZILMA LOYIHALARI RO‘YXATI

4.1. Investitsion loyihalarni aniqlash (tashqi muhandislik, jamoat xizmatlari, ekologiya, qurilish) ……**48**
4.2. Tozalash, chiqindilarni yig‘ish, muhitni muhofaza qilish loyihalari ……**49**
4.3. Ijtimoiy xizmatlar (bog‘cha, maktab, tibbiy xizmatlar va boshqalar) ……**50**
4.4. Jamoat joylarini qayta loyihalash (piyodalar marshruti, belgilar, yoritish) ……**51**
4.7. Investitsiya smetalari — davlat, xususiy, DXSh ……**52**
4.8. Davlat, xususiy va Dxsh loyihalarining yakuniy ro‘yxati, ijtimoiy-iqtisodiy foyda (ish o‘rinlari, soliqlar, aylanma) ……**53**
4 - Vazifa natija xulosasi

V-BOB. “YERDAN FOYDALANISH VA MASTER-REJA LOYIHASI”

5.1. Loyiha hududining joylashuv rejasi (1:10 000 – 1:25 000) ……**56**
5.2. Tayanch rejasi (mavjud holat) ……**57-58**
5.3. Hududning funksional bo‘linish sxemasi ……**59**
5.4. Asosiy reja (me’moriy-rejaviy yechimlar) – M 1:1000 ……**60-62**
5.5. Qizil chiziqlar rejasi ……**63**
5.6. Yerdan foydalanish rejasi (lotlarga bo‘linish) ……**64**
5.7. Jamoat va ijtimoiy soha obyektlari rejasi ……**65-67**
5.8. Ochiq maydonlar va landshaft hududlari rejasi ……**68**
5.9. Shahar dizayni va arxitektura elementlari rejasi (balandliklar, tipologiya, dizayn-kod, dendroplan) ……**69-70**
5.10. Harakatlanish va harakat qulayligi rejasi (yo‘llar, yo‘laklar, veloyo‘llar, jamoat transporti) ……**71-72**
5.11. Muhandislik jihozlash rejasi ……**73-78**
5.12. Vertikal rejalashtirish va muhandislik tayyorlash ……**83-86**
5.13. Atrof-muhit muhofazasi loyihasi ……**87-88**
5.14. 3D hajmiy-fazoviy ko‘rinishlar ……**89-106**
5 - VAZIFA NATIJA XULOSASI

VI-BOB. YER UCHASTKALARINING (LOTLARNING) PASPORTLARINI SHAKLLANTIRISH

6.1. Lotlar umumiy xaritasi ……**108**
6.2. Lotlarga ajratish, har bir lot uchun alohida pasport ……**109-121**
6 - VAZIFA NATIJA XULOSASI

TAKLIF ETILAYOTGAN INVESTITSIYA VA INFRATUZILMA LOYIHALARI RO‘YHATINI SHAKLLANTIRISH.

YERDAN FOYDALANISH VA MASTER – REJA LOYIHASI.

YER UCHASTKALARINING (LOTLARNING) PASPORTLARINI SHAKLLANTIRISH.

I-BOB. HUDUDNING JORIY IQTISODIY-IJTIMOIY HOLATI BO‘YICHA TAHLIL



HUDUDNING JOYLASHUV SXEMASI




RESPUBLIKA MIQYOSIDA




NAMANGAN VILOYATI



GULISTON MFY (CHODAK)



MASTER REJA JOYLASHUVI - HUDUDNING RESPUBLIKA MIQIYOSIDA JOYLASHUV SXEMASI






SHARTLI BELGILAR

- VILOYAT MARKAZI
- TUMAN MARKAZI
- DAVLAT CHEGARASI
- TUMAN CHEGARASI
- XALQARO AEROPORT
- DAVLAT AHAMIYATIDAGI YOLLAR
- TEMIR YO`L
- SUV HAVZASI

1.2. HUDUDNING IQLIM XUSUSIYATLARI



O‘rtacha maksimal va minimal harorat

Issiq mavsum 3,8 oy davom etadi (20 maydan 14 sentyabrgacha) va kunlik o‘rtacha yuqori harorat 29°C dan oshadi. Yilning eng issiq oyi – iyul, o‘rtacha maksimal harorat 35°C, minimal harorat esa 22°C ni tashkil qiladi.

Sovuq mavsum 3 oy davom etadi (dekabrdan fevralgacha), qish juda sovuq kechadi. Yilning eng sovuq oyi yanvar bo‘lib, o‘rtacha harorat -3°C dan 3°C gacha bo‘ladi.



O‘rtacha uchun yilning eng qulay davri


Sayyohlik uchun yilning eng qulay davri avgust oyining o‘rtalaridan sentabr oyining oxirigacha bo‘lib, ochiq havoda sayr qilish va umumiy turistlik faoliyatlar uchun eng yuqori qulaylik darajasi sentabr oyining ikkinchi haftasiga to‘g‘ri keladi. Bu davrda ob-havo ochiq va harorat juda mo‘tadil bo‘ladi (taxminan 25–30°C).



Oylik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdori


Yilning yomg‘irli davri 7,4 oy davom etadi (taxminan 19-oktabrdan 4-iyungacha). Yilning eng yomg‘irli davrida (aprel-may) yog‘ingarchilik o‘rtacha 31 kun davomida kamida 17 mm ni tashkil qiladi.

Quruq davr 4,6 oy davom etadi (4-iyundan 19-oktabrgacha). Yilning eng quruq oyi avgust bo‘lib, o‘rtacha yog‘ingarchilik atigi 2 mm ni tashkil qiladi.




O‘rtacha oylik shamol tezligi


Yil davomida soatlik o‘rtacha shamol tezligi deyarli bir xil bo‘lib, taxminan 2.7 m/s atrofida saqlanadi va yil davomida 0.2 m/s dan ortiq o‘zgarishga uchramaydi.




Iqlim oylik ko‘rsatkichlari. Umumiy diagramma

Yoz fasli issiq va quruq, qish esa sovuq, qorli va bulutli bo‘ladi. Yil davomida harorat odatda -3°C dan 35°C gacha o‘zgarib turadi va kamdan-kam hollarda -8°C dan past yoki 38°C dan yuqori bo‘ladi.








Hudud relyef xususiyatlari haqida ma`lumotlar.


Hudud Chatqol tog‘ tizmasi etak qismida joylashgan bo‘lib, relyefi tog‘oldi–adir xarakteriga ega. Yer yuzasi notekis, tabiiy terrasalangan, qiyaliklar ustunlik qiladi. Absolyut balandliklar taxminan 900–1200 m oralig‘ida. Nishablik darajasi asosan o‘rtacha, ayrim uchastkalarda keskin bo‘lib, relyefning yuqoridan pastga tomon bosqichma-bosqich pasayishi kuzatiladi.
Hudud bo‘ylab mavsumiy soylar va suv oqimlari shakllangan bo‘lib, bahor davrida suv miqdori ortadi. Relyef suv oqimlarini tabiiy ravishda pastqam hududlarga yo‘naltiradi, ayrim joylarda vaqtinchalik suv to‘planishi ehtimoli mavjud. Shu sababli sel va eroziya jarayonlariga moyil qiyaliklar uchraydi.



Chodakning tarixi va aholisi haqida
Chodak – Namangan viloyati Pop tumanidagi eng qadimiy aholi maskanlaridan biri hisoblanib, uning tarixi 4500 yilga yaqin vaqtni tashkil etadi. Go‘zal tabiati bilan ajralib turuvchi bu maskan, Chodaksay daryosi (Sirdaryoning irmog‘i) bo‘yida joylashgan bo‘lib, qadimdan qulay tabiiy sharoitlari va Markaziy Osiyo savdo yo‘llari kesishgan strategik joylashuvi bilan e’tiborni tortib kelgan.
Tarix davomida Chodak mintaqa taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan.

- **Antik davrda:** Hududdan Buyuk Ipak yo‘lining savdo karvonlari o‘tgan. Aynan shu yo‘llar orqali Aleksandr Makedonskiy (mil. avv. IV asr) o‘z qo‘shini bilan harakatlangan va bu yerda uzoqroq vaqt dam olgani taxmin qilinadi. Bu tarixiy voqea Chodakni madaniy va savdo markazi sifatida rivojlantirishga kuchli turtki bergan.
- **Kushonlar davrida (milodiy I–III asrlar)** Chodak yana yuksalib, viloyatning ilg‘or va rivojlangan markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda hunarmandchilik, tijorat va shaharsozlik rivojlangan, aholi ko‘paygan.
- O‘rta asrlarda Chodak keramika, to‘qimachilik va metallga ishlov berish kabi hunarmandchilikning rivojlangan markaziga aylangan va uning mahsulotlari hudud tashqarisida ham mashhur bo‘lgan.
- XIX–XX asrlarda Chodak o‘zining toza havosi, shifobaxsh mineral buloqlari va go‘zal tabiat manzaralari sababli dam olish va davolanish joyi sifatida katta shuhrat qozongan.


Bugungi kunda Chodak nafaqat tarixiy ahamiyatga ega maskan, balki turizm uchun katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi.



Mug‘qal’a (Mug‘tepa) — Chodak hududida joylashgan qadimiy tarixiy obida bo‘lib, uning bir qismi bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ushbu tarixiy qal’a Chodak hududining qadimgi savdo va harbiy strategik ahamiyatini aks ettiruvchi muhim obyekt hisoblanadi.
Mug‘qal’a qadimda Buyuk Ipak yo‘lining strategik markazlaridan biri sifatida xizmat qilgan. Uning mavjudligi Chodakning qadimgi davrlardagi iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu qal’a orqali o‘tgan karvon yo‘llari mahalliy hunarmandlar va savdogarlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, Chodakning mintaqadagi mavqeini oshirgan.
Bugungi kunda Chodakda Mug‘qal’aning kichik bir qismi saqlanib qolgan bo‘lib, hududning tarixiy va sayyohlik qiymatini oshiruvchi muhim madaniy meros obyekti hisoblanadi.







Yuqori zichlikdagi hududlar.....

Kam egallangan hududlar.....

Suv yuzalari.....









HUDUDIY YERDAN FOYDALANISH STRUKTURASI TAHLILI

Hudud yer fondi asosan tabiiy va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida shakllangan bo‘lib, rekreatsiya va qurilish faoliyati cheklangan ulushni egallaydi. Yer foydalanish strukturasi quyidagi asosiy toifalardan iborat:

Qishloq xo‘jaligi yerlar – 45–50 %

Asosan bog‘lar, lalmi ekin maydonlari va yaylovlardan iborat. Relyef qiyaligi sababli intensiv dehqonchilik cheklangan, ammo landshaft jihatdan dam olish hududlari bilan uyg‘unlashish imkoniyati mavjud.

Tabiiy va yashil hududlar – 30–35 %

Tog‘oldi adirlari, butazorlar, o‘tloqlar va qisman o‘rmonzorlar. Ushbu hududlar ekologik barqarorlikni ta’minlaydi va rekreatsion rivojlanish uchun asosiy resurs hisoblanadi.

Aholi yashash va xo‘jalik hududlari – 8–10 %

Guliston MFY doirasidagi turar joylar, yordamchi xo‘jaliklar va mahalliy infratuzilma obyektlari. Zichlik past, asosan past nishabliklarda joylashgan.

Transport va muhandislik infratuzilmasi – 3–5 %

Avtomobil yo‘llari, kirish yo‘laklari va muhandislik tarmoqlari. Hududiy qamrov yetarli, ammo rekreatsiya obyektlari uchun ichki yo‘llarni rivojlantirish talab etiladi.

Rekreatsiya va dam olish hududlari (mavjud) – 2–4 %

Norasmiy dam olish maydonlari, soy bo‘ylari va ochiq landshaftlar. Hozirgi ulush past bo‘lib, hudud salohiyatiga nisbatan yetarli emas.

MAVJUD BINO VA INSHOOTLARNING KADASTR TAHLILI

Hududni rivojlantirishda tabiiy va texnogen xususiyatdagi ehtimoliy kataklizmlar xavfini hisobga olish juda muhimdir. Ushbu bo‘limda loyihalanayotgan hudud uchun quyidagi ehtimoliy xavf-xatarlar ko‘rib chiqiladi:

- **Suv toshqinlari:** Bahor mavsumida daryolarda suv sathi keskin ko‘tarilishi mumkin. Bu holat hududdagi infratuzilma obyektlariga xavf tug‘dirishi mumkin.
- **Zilzilalar:** Namangan viloyati seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi, shuning uchun qurilish loyihalarini rejalashtirishda maxsus qurilish talablari va standartlarga rioya etilishi kerak.
- **Ko‘chkilar va surilmalar:** Tog‘li joylarda joylashgan Chodak hududi uchun ko‘chkilar xavfi mavjud bo‘lib, ularni oldindan aniqlash va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

1.6. HUDUDNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IQTISODIY-IJTIMOIY OMILLAR

(Aholi soni, o‘rtacha oylik daromad, uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi) Tahlil qilinadi.

Hududni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy iqtisodiy-ijtimoiy omillar sifatida **aholi soni**, **o‘rtacha daromad**, va **uy-joy bilan ta’minlanganlik** ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Guliston MFY va uning atrofida aholining yilma-yil **barqaror o‘sishi**, ayniqsa **yoshlar ulushining ko‘pligi**, rekreatsion xizmatlarga bo‘lgan talabning yuqoriligini ko‘rsatadi. Hudud aholisi asosan qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va mayda tadbirkorlik sohalarida band bo‘lib, o‘rtacha daromad darajasi barqaror, bu esa dam olish hududining iqtisodiy jihatdan talabgir bo‘lishiga imkon yaratadi.
Umuman olganda, hududning demografik tarkibi, iqtisodiy faolligi va uy-joy infratuzilmasi Chodak dam olish hududini rivojlantirish uchun **qulay sharoit** yaratadi hamda loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan **barqarorligini ta’minlaydi**.



Hudud rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar.

1.Tadbirkorlar uchun sharoit yoqligi 44%
2.Transport qulayligi 65%
3.Tabiiy-rekreatsion sharoit 20%
4.Aholining daromad darajasi 104%
5.Bandlik va ish o‘rinlari ehtiyoji 60%
6.Infratuzilmaning yetishmasligi 86%






GULISTON MFY HUDUDI YASHIL MAYDON KO`RSATKICHLARI.

KO`P YILLIK DARAXTLAR 67,6%

MAVSUMIY BUTA VA DARAXTLAR 32,7%

SHIFOBAXSH DORIVOR O`SIMLIKLAR 20,5%



MAVJUD FLORA VA FAUNA



TERAK **65%**



DO`LANA **5%**



QAYRAG`OCH **10%**



ZARANG **25%**



CHINOR **18%**



OQ TERAK **30%**

POP TUMANI, GULISTON MFY HUDUDIDA ASOSAN TOG`LI HUDUDGA MOS KELUVCHI DARAXT VA BUTALAR MAVJUD. BULARDAN TERAK, CHINOR, SHUM TOL, TOL, YAPON SAFORASI, QAYRAGOCH, OQ TERAK, KOK TERAK, ZARANG, LOLA TARAXT. BUTALARDAN ESA NAMATAK, YAPON BEXISI, ZIRK, SHAMSHOD. MEVALI DARAXTLAR, MASALAN GILOS, OLMA, ANJIR, OLCHA, UZUM VA ZAYTUN EKILADI. SHUNINGDEK, QAMISH, BADAM KABI SAHRO SHAROITLARIGA MOSLASHGAN DARAXTLAR HAM MAVJUD. KO‘CHALARDA VA BOG‘LARDA DEKORATIV BUTALAR SIFATIDA KAVAK, SMORODINA VA QIZIL GULLAR EKILADI. YASHIL HUDUDLAR VA KO‘CHALAR UCHUN ESA QAMISH, QARAG‘AY VA SAMARQAND DARAXTLARI HAM EKILADI. BU O‘SIMLIKLAR IQLIM SHAROITLARI VA QISHLOQ XO‘JALIGI EHTIYOJLARIGA MOS TANLANADI.

O‘zbekistonning Namangan viloyati, jumladan Chodak posyolkasi, tabiiy va inson faoliyati bilan bog‘liq turli omillar ta’sirida shakllangan xilma-xil ekologik holatga ega.

Atmosfera havosining sifati

Atmosfera havosi tahliliga ko‘ra, asosiy ifloslantiruvchi moddalarning miqdori belgilangan me’yorlar doirasida:

•Uglerod oksidi (CO): 4,0 mg/m³ (me’yor — 0,12 mg/m³)
•Azot dioksidi (NO_2): 0,04 mg/m³ (me’yor — 0,06 mg/m³)
•Oltingugurt dioksidi (SO_2): 0,026 mg/m³ (me’yor — 0,2 mg/m³)
•Chang-zarralari: 0,14 mg/m³ (me’yor — 0,35 mg/m³)

Bu ko‘rsatkichlar hududda atmosfera havosi holatining ijobiy ekanligidan dalolat beradi.

Tuproqlar va qishloq xo‘jaligi

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida paxta yetishtirishning intensivligi va pestitsidlardan keng foydalanilishi oqibatida tuproqlarning sho‘rlanishi kuzatilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra, viloyatdagi tuproqlarning 47,9% qismi kuchli sho‘rlangan, bu esa qishloq xo‘jaligiga hamda paxta dalalari yaqinida joylashgan aholi yashash uylariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ekologik tashabbuslar

So‘nggi yillarda viloyatda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Namangan ekologik barqarorlik bo‘yicha O‘zbekistonning eng "yashil" shaharlari reytingida 100 balldan 62,29 ball bilan yetakchi bo‘lib turibdi. Bu esa hududda ekologik barqarorlikka va yashil maydonlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

EKOLOGIK MUHITNI BAHOLASH







EHTIMOLIY KATAKLIZMLAR

Hududni rivojlantirishda tabiiy va texnogen xususiyatdagi ehtimoliy kataklizmlar xavfini hisobga olish juda muhimdir. Ushbu bo‘limda loyihalanayotgan hudud uchun quyidagi ehtimoliy xavf-xatarlar ko‘rib chiqiladi:

•**Suv toshqinlari:** Bahor mavsumida daryolarda suv sathi keskin ko‘tarilishi mumkin. Bu holat hududdagi infratuzilma obyektlariga xavf tug‘dirishi mumkin.
•**Zilzilalar:** Namangan viloyati seysmik jihatdan faol hudud hisoblanadi, shuning uchun qurilish loyihalarini rejalashtirishda maxsus qurilish talablari va standartlarga rioya etilishi kerak.
•**Ko‘chkilar va surilmalar:** Tog‘li joylarda joylashgan Chodak hududi uchun ko‘chkilar xavfi mavjud bo‘lib, ularni oldindan aniqlash va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.
•**Ekologik xavf-xatarlar:** Hududda atrof-muhitni ifloslantiruvchi sanoat ob’ektlari mavjud bo‘lsa, ularning ta’siri baholanib, oldini olish choralari ko‘rilishi zarur.

Yuqoridagi ehtimoliy kataklizmlarni oldindan hisobga olish va xavflarni kamaytirish tadbirlarini ishlab chiqish hududning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun zarur hisoblanadi.

GULISTON MFY HUDUDI YASHIL MAYDON KO`RSATKICHLARI.



CHODAK DAM OLISH HUDUDIDAGI DORIVOR O`SIMLIK TURLARI
BALANSI 25%-60% TASHKIL ETADI





QO`RIQXONA HUDUDIDAGI DORIVOR O`SIMLIK TURLARI
BALANSI 30%-75% TASHKIL ETADI



HUDUD BO`YLAB TASIR ETUVCHI OMILLAR

HUDUD BO`YLAP TADBIRKORLAR TOMONIDAN EKALOGIYA
TAYANCHI UCHUN TASHKIL ETILGAN ISHLAR





GULISTON MFY HUDUDIDA JOYLASHGAN CHODAK SOY

Chodaksoy soyini tuman hududidan oqib o‘tadigan qismining umumiy maydoni **578,53** gektar bo‘lib, shundan suv osti yer maydoni **349,64** gektar, suvni sohil bo‘yi mintaqasi umumiy maydoni **228,89** gektar tashkil qiladi.



H_2O

CHODAK SOY UMUMIY UZUNLIGI **29,2 KM** LOYIHALANYOTGAN HUDUDGA TEGISHLI QISMI **7,2 KM**




CHODAK SOY HAQIDA MA`LUMOTLAR

CHODAK SOY NAMANGAN VILOYATI POP TUMANIDA JOYLASHGAN MUHIM SUV MANBAIDIR. SUV MANBALARI ASOSAN TOG‘LARDAN KELIB CHIQADI VA ICHIMLIK SUVI HAMDA SUG‘ORISH UCHUN FOYDALANILADI. SOYDAN AHOLI UCHUN TOZA ICHIMLIK SUVI TA'MINLANADI, AMMO BA'ZIDA SUVNI TOZALASH ZARUR BO‘LADI. CHODAK SOYINING SUV SIFATI ODATDA YAXSHI BO‘LIB, QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUG‘ORISH MAQSADIDA KENG QO‘LLANILADI. SHU BILAN BIRGA, EKOLOGIK MUAMMOLAR VA SUVNING IFLOSLANISHI HOLATLARI HAM YUZAGA KELISHI MUMKIN, SHUNING UCHUN SUVNI TEJASH VA SIFATINI NAZORAT QILISH MUHIM. CHODAK SOYINING ATROFIDAGI EKOLOGIK HOLATNI HIMOYA QILISH VA BARQAROR SUV TA'MINOTINI TA'MINLASH ZARUR.

MAVJUD MUHANDISLIK TARMOQLARI SXEMASI

KO'RSATKICH BELGILAR BARCHA MUASSASALAR GULISTON MFY AHOLISIGA QAY DARAJADA ISHLASH PRINSIPLARINI KO'RSATIB BERADI.



TRANSFORMATORLAR SONI **11TA** ELEKTR TARMOG`I UZUNLIGI **8,9 KM**

SIMYOG`OCHLAR SONI **380 TA** -TAMIR TALAB **75 TA**

SUYILTIRILGAN GAZ ORQALI TAMINLANGAN XONADONLAR **515 TA** XONADONLAR ISITISH SISTEMASIGA ESA KO`MIR ORQALI AMALGA OSHIRILADI.

ICHIMLIK SUVI MAHALLADA SOY SUVI ORQALI TAMINLANGAN

MAVJUD ELEKTR,SUV GAZ VA ISITISH TARMOQLARI

Guliston MFY hududida kommunal tarmoqlarning holati jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Elektr energiyasining uzilishlari tez-tez ro'y berib, eskirgan uskunalar va kabellarning holati tarmoqni ishonchsiz qiladi. Ba'zi hududlarda elektr ta'minoti umuman yetarli emas. Ichimlik suvi ta'minoti ham notekis, ba'zan suv bosimi juda past bo'ladi, suv ta'minotidagi uzilishlar aholini qiynaydi. Tabiiy gaz tizimi ham muammolarga ega, gaz ta'minoti uzilib, isitish tizimlari ba'zan ish bermaydi. Isitish tarmoqlarining eskirganligi va texnik xizmat ko'rsatishning etishmasligi qish oylarida uylarni isitishda muammolar yaratadi. Ushbu tarmoqlarda ta'mirlash ishlari va yangilanishlar amalga oshirilmayapti, natijada aholiga sifatli xizmat ko'rsatilmasligi davom etmoqda. Tizimlarning holati nafaqat kundalik turmush uchun, balki xavfsizlik uchun ham tahdid soladi.

1. Hozirgi iqtisodiy holat

Qishloq xo‘jaligi
•Hudud iqtisodiyotining asosiy tayanchi
•Meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik ustun
•Kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklari faol
•Qayta ishlash zanjiri yetarlicha rivojlanmagan

Hunarmandchilik va kichik ishlab chiqarish
•Mahalliy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi ustaxonalar mavjud
•An’anaviy kasblar salohiyati saqlanib qolgan
•Mahsulotlarni brendlash va bozorga chiqarish darajasi past

Savdo va xizmat ko‘rsatish
•Asosan mahalliy bozor va kundalik xizmatlar
•Zamonaviy savdo va servis infratuzilmasi yetishmaydi
•Turizmga yo‘naltirilgan xizmatlar deyarli shakllanmagan







2. Salohiyat va rivojlanish imkoniyatlari

Agrosanoat majmuasi
•Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini **qayta ishlash** (qadoqlash, saqlash, logistika)
•Sovutkich omborlari va mini-zavodlar tashkil etish
•Hududiy brend mahsulotlar yaratish

Turizm va rekreatsiya
•Tabiiy landshaft va tog‘oldi hududlaridan foydalanish
•Ekoturizm, agro-turizm, dam olish maskanlari
•Mahalliy mahsulotlar va hunarmandchilik bilan integratsiya

Kichik biznes va tadbirkorlik
•Oilaviy bizneslar va servis xizmatlarini rivojlantirish
•Savdo, ovqatlanish, mehmonxona va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari
•Yoshlar bandligini oshirish imkoniyati







3. Masterplan doirasidagi asosiy yo‘nalishlar (Takliflar)

(Chodak — turizmga yo‘naltirilgan hudud sifatida)

Iqtisodiy tarmoqlarni hududiy rejalashtirish bilan bog‘lash

Masterplan doirasida iqtisodiy tarmoqlar hududning turistik funksiyasini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari turistik marshrutlar, jamoat makonlari va dam olish zonalari bilan integratsiya qilinadi. Bu hududda iqtisodiy faoliyatni jonlantirish bilan birga, turistlar uchun qulay va jozibador muhit yaratishni ta’minlaydi.

Ishlab chiqarish – savdo – turizm zanjirini shakllantirish

Hududda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati turizm bilan bevosita bog‘langan holda rivojlantiriladi. Mahalliy qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari turistik savdo maydonchalari, ko‘rgazma zonalari va servis obyektlari orqali taklif etiladi. Bu yondashuv turistlar oqimini iqtisodiy daromadga aylantirish va mahalliy aholi bandligini oshirish imkonini beradi.

Investitsiya jalb qilish uchun aniq zonalar belgilash

Masterplan doirasida turizm va servisga yo‘naltirilgan investitsion zonalar aniq belgilanadi. Dam olish maskanlari, mehmonxonalar, ekoturizm obyektlari, savdo-servis markazlari va gastronomik klasterlar uchun qulay hududlar ajratiladi. Ushbu zonalar muhandislik va transport infratuzilmasi bilan ta’minlanib, investorlar uchun tushunarli va shaffof taklif sifatida shakllantiriladi.

Barqaror va diversifikatsiyalangan iqtisodiy model yaratish

Hudud iqtisodiyoti turizmni asosiy drayver sifatida qabul qilgan holda, qishloq xo‘jaligi, servis va kichik biznes bilan muvozanatli rivojlantiriladi. Turizm mavsumiyligidan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirish uchun turli yo‘nalishlar uyg‘unlashtiriladi. Natijada Chodak hududi barqaror daromad manbalariga ega, ekologik va iqtisodiy jihatdan muvozanatli hududga aylanadi.


MAHALLIY AHOLI VA HOKIMIYAT BILAN O‘RGANISH ISHLARI (HOKIMIYAT, BIZNES, MAHALLA FAOLLARI)

Chodak dam olish hududida ko‘plab bo‘sh yer maydonlari mavjud, bu esa turizm, dam olish va sanoat loyihalari uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Chodakda mavjud bo‘lgan bo‘sh yerlar turizm infratuzilmasi, mehmonxona komplekslari, restoranlar, sport va dam olish maydonchalari kabi turli sohalar uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, bu yerlarni jahon standartlariga mos keladigan uslubda qayta tiklash va rivojlantirish hududga katta iqtisodiy foyda keltiradi.









MAHALLIY AHOLI VA HOKIMIYAT BILAN O‘RGANISH ISHLARI









Loyiha oldi bosqichida Guliston MFY aholisi hamda hudud bilan bog‘liq davlat va xo‘jalik idoralari vakillari bilan suhbatlar o‘tkazildi. Suhbatlar hududdan foydalanish, mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratildi. Aholi bilan o‘tkazilgan suhbatlarda hududda dam olish infratuzilmasi yetishmasligi (**70 %**), hududni tartibli va xavfsiz rivojlantirish zarurligi (**60 %**) qayd etildi. Aholining **50 % dan ortig‘i** loyiha amalga oshirilsa, xizmat ko‘rsatish faoliyatida ishtirok etishga tayyorligini bildirdi. Mahalla va jamoat tashkilotlari hududni rivojlantirish tashabbusini ijobiy baholab, chiqindilar va ruxsatsiz foydalanish muammolarini bartaraf etish zarurligini ta’kidladi.

1.13. MASTER-REJA UCHUN QO‘SHIMCHA 50 GA MAYDONGA KONTSEPTSIYA

MASTER-REJA ISHLAB CHIQISH UCHUN TANLANGAN HUDUDGA QO‘SHIMCHA RAVISHDA 50 GA MAYDONGA KONTSEPTSIYA ISHLAB CHIQISH



Namangan viloyati, Guliston MFY hududida joylashgan “Chodak” dam olish hududining master-reja loyihasini ishlab chiqish jarayonida buyurtmachi tashkilot tomonidan bizga dastlab **100 gektar** yer maydoni loyiha hududi sifatida taqdim etilgan edi.
Loyiha jarayonida buyurtmachining qo‘shimcha topshirig‘iga asosan, umumiy loyiha hududiga yana **qo‘shimcha 50 gektar** yer maydoni biriktirildi.
Ushbu qo‘shimcha maydon loyihaga integratsiya qilinishi lozimligi sababli, biz yangi 50 gektar hududni mavjud 100 gektarlik dastlabki loyiha hududi bilan **muvozanatli tarzda bir butun master-reja tizimiga uyg‘unlashtirdik**.

Natijada, umumiy **150 gektar** maydon yagona rejalashtirish tamoyillari asosida, funksional zonalash, transport va piyodalar aloqadorligi, rekreatsion hududlarning uzviyligi hamda landshaft-kompozitsion yechimlar uyg‘unligi ta’minlangan holda loyihalashtirildi.
Mazkur bayonot master-reja loyihasidagi qo‘shimcha 50 ga yer maydoni aynan qanday tartibda va qanday tamoyillar asosida umumiy hududga qo‘shilganini tasdiqlash maqsadida tuzildi. Qo‘shimcha 50 gektar hududni umumiy master-reja tarkibiga kiritish jarayonida ushbu maydon yirik, yagona massiv sifatida emas, balki **2–3 gektarlik kichik uchastkalarga bo‘lingan holda** taqdim etilgan. Shuning uchun bu hududlar loyihadagi funksional zonalash, landshaft yechimlari va infratuzilma tizimlariga mos ravishda **bo‘lib-bo‘lib, turli joylarga integratsiya qilingan**.

Maydonlarning bo‘laklarga bo‘lingan holda berilgani sababli, har bir kichik uchastkaning aniq koordinatalar bo‘yicha joylashuvini yakka tartibda ajratib ko‘rsatishning imkoni mavjud emas. Biroq barcha qo‘shimcha maydonlar umumiy master-reja konsepsiyasiga mos holda, mavjud hududga **proportsional tarzda tarqatilib** joylashtirilganini tasdiqlaymiz.

S — Kuchli tomonlar
Noyob tog‘ landshafti va ekologik muhit
Boy flora va fauna
Tarixiy meros obyektlari mavjudligi

W — Zaif tomonlar
Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining eskirganligi
Transport va piyodalar infratuzilmasining yetarli emasligi
Tartibsiz yer foydalanish va norasmiy dam olish zonalari
Turizm xizmatlari sifati pastligi



O — Imkoniyatlar
Hududni rejalashtirilgan rekreatsion zonaga aylantirish
Ekoturizm va tog‘ turizmini rivojlantirish

T — Xatarlar
Hududni rejalashtirilgan rekreatsion zonaga aylantirish
Ekoturizm va tog‘ turizmini rivojlantirish

1 VAZIFA
Hududning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holatini, tabiiy-relyef sharoitlarini, ekologik muhitni, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini hamda yer resurslaridan foydalanish holatini kompleks tahlil qilish.

2 NATIJA
•Hududning tog‘oldi relyefi va ekologik jihatdan qimmatli tabiiy landshaftlari aniqlandi
•Muhandislik infratuzilmasining eskirganligi va yetishmovchiligi qayd etildi
•Turizm faoliyati mavjud, biroq tartibsiz va past sifatli ekani aniqlanildi
•Aholi va manfaatdor tomonlar tomonidan hududni tartibli rivojlantirishga yuqori ehtiyoj bildirildi

3 XULOSA
Chodak hududi yuqori tabiiy, ekologik va tarixiy salohiyatga ega bo‘lsa-da, mavjud holatda ushbu resurslar tizimli rejalashtirish va zamonaviy infratuzilma yetishmasligi sababli to‘liq samarali ishlatilmayapti. Hududni barqaror rivojlantirish uchun kompleks master-reja ishlab chiqish zarur.

HUDUDNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH SALOHIYATI VA ZAXIRALARI




2.1. LOYIHA HUDUDINING IQTISODIY RIVOJLANISH SALOHIYATI VA IQTISODIY DRAIVERLARNI ANIQLASH


Namangan hududidagi chodak dam olish hududi barcha hususiy tadbirkorlar tomonidan barpo etilgan atraksion hududlar holati yomonlashgan. Ko'plab attraksionlar ishlamaydi yoki xavfsizlik talablariga javob bermaydi. Infratuzilma, jumladan bir necha hudud qismlari eskirgan va shikastlangan. Hududda ekologik muammolar ham mavjud, chunki atrof-muhitga etarli e'tibor berilmayapti. Umuman olganda, Chodak hali ham go'zal bo'lsa-da, attraksionlar va infratuzilmaning holati sayyohlar uchun noqulay. Hududni qayta tiklash va yangilanishi kerak.

















MAVJUD TURIZM INFRATUZILMASI

Chodak dam olish hududida aholining dam olish uchun maydonlari mavjud bo‘lsa-da, ular talab va qulaylik darajasiga yetmaydi. Mavjud obyektlar orasida kichik attraksionlar, tabiiy joylarda o‘tirish maydonlari, bassenlar va tabiat qo‘ynidagi qoriq xonalar mavjud, ammo xizmat ko‘rsatish va xavfsizlik yetarli emas. Hududning iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori bo‘lib, turizm va rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish, mahalliy xizmat ko‘rsatish va savdo, mehnat resurslaridan foydalanish, tabiiy resurslarni barqaror ishlatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Loyihada obyektlarni modernizatsiya qilish va yangi xizmat markazlarini yaratish hududning iqtisodiy draiverlarini faollashtiradi.

GEOGRAFIK JOYLASHUV HUSUSIYATLARI VA IQTISODIY DRAIVERLARNI ANIQLASH

Chodak dam olish hududida ko‘plab bo‘sh yer maydonlari mavjud, bu esa turizm, dam olish va sanoat loyihalari uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Chodakda mavjud bo‘lgan bo‘sh yerlar turizm infratuzilmasi, mehmonxona komplekslari, restoranlar, sport va dam olish maydonchalari kabi turli sohalar uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, bu yerlarni jahon standartlariga mos keladigan uslubda qayta tiklash va rivojlantirish hududga katta iqtisodiy foyda keltiradi.









Yuqori daromadli investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari

1. Potensial investitsiya hajmi
•Umumiy investitsiya sig‘imi: **680–720 mlrd so‘m**
•Xususiy investorlar ulushi: **65–70%**
•Davlat-xususiy sheriklik (DXSh): **30–35%**
•O‘rtacha loyihaning qaytish muddati: **3.5 – 6 yil**



2. Yuqori daromadli investitsiya yo‘nalishlari
2.1. Turizm infratuzilmasi
•Mehmonxonalar, kottejlar majmuasi, glamping: **210–275 mlrd so‘m**
- Yillik daromad: **18–22 mlrd so‘m**
- Bandlik: **240–300 ish o‘rni**



•Ko‘ngilochar majmualar, Aquapark, attraksionlar: **180–210 mlrd so‘m**
- Rentabellik: **25–30%**

•Sport va rekreatsion markaz: **28–32 mlrd so‘m**



2.2. Qayta ishlash va ishlab chiqarish
•Quruq meva ishlab chiqarish sexi (500 tonna/yil):
- Investitsiya: **12–15 mlrd so‘m**
- Daromad: **7–9 mlrd so‘m/yil**
- Ish o‘rinlari: **35–45 ta**



•Asal va tog‘ mahsulotlarini qayta ishlash liniyasi:
- Investitsiya: **6–8 mlrd so‘m**
- Rentabellik: **28–32%**

•Mineral suv / ichimlik suvi qadoqlash zavodi:
- Investitsiya: **18–25 mlrd so‘m**
- Yillik daromad: **14–18 mlrd so‘m**
- Ish o‘rinlari: **30–40 ta**



2.3. Agroklaster va issiqxona loyihalari
•Zamonaviy issiqxona (2 GA):
- Investitsiya: **25–32 mlrd so‘m**
- Yillik daromad: **16–20 mlrd so‘m**
- Rentabellik: **40–45%**

•Agro-turizm + ishlab chiqarish kompleksi:
- Investitsiya: **10–14 mlrd so‘m**
- Qo‘shimcha daromad: **2–3 mlrd so‘m/yil (turizm)**



3. Ishlab chiqarish quvvatlari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar
•Mahalliy xom-ashyo ulushi: **70–80%**
•Eksport potensiali: **yiliga 3–5 mln dollar**
•Sanoat hududi maydoni: **12–16 GA**
•Sanoat obyektlarining energetik ta’minoti:
- Elektr: **3.5–4.2 MW**
- Suv: **65–80 m³/soat**





4. Investorlarga yaratiladigan sharoitlar taklifi
•Soliq imtiyozlari muddati: **3–5 yil**
•Yer ajratish muddati: **25 yilgacha**
•Yirik loyihalar uchun belgilangan infratuzilma olib kirish: **10–12 mlrd so‘m gacha** (davlat tomonidan)
•Investor uchun minimal ulush bosqichi: **5 mlrd so‘m**



5. Kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik
•Umumiy yangi ish o‘rinlari: **900–1020 ta**
•Mintaqaviy YaIMga qo‘shiladigan ulush: **yiliga 1.8–2.2%**
•Turistik hududga qo‘shimcha aholi daromadi: **12–15 mlrd so‘m/yil**



1 UMUMIY MA’LUMOTLAR

Master reja **hududi - 100 ga + 50 ga konsepsiya**
Loyihaning umumiy **qiymati -**
210.0 mlrd. so'm hududni qurilishi (Yo'l, infrastruktura, muhandislik tarmoqlari)
717.5 mlrd. so'm binolar va turizm loyihalari qurilishi
Master reja asosida ajratilgan **lotlar soni - 31 ta**
Buyurtmachi - **"Urbanizatsiya va shaharsozlik Respublika markazi»**

2 HUDUDNING JORIY DRAYVERLARI

Guliston MFY hududidagi **tabbiy giyohlar- 40%**
Chodak **dam olish maskanlari- 80%**
Guliston MFY Chodak **sihatgohlari- 20%**
Chodak **suv kanal va chashmalar- 86%**
Chodak **tabiiy go'zal tabiati- 98%**
Guliston MFY hududidagi **ormon hojaligi-45%**
Chodak dam olish hududining **relief qatlami -**
Aholining **hududga faol yondashuv** ko'rsatkichlari mavjudligi**- 88%**

3 INFRATUZILMAGA BO'LGAN EHTIYOJ

Elektr tarmog'i - **8.9 km**
Transformatorlar - **11 ta**
Umumiy elektr tarmoglari uchun xarajatlar - **13.5 mlrd**
Ichimlik suvi tarmog'i - **7.2 km**
Suv saqlash inshooti - **2 ta**
Chiqindi suvlarini yig'ish va qayta ishlash inshooti - **1 ta**
Chiqindi suvlar tarmog'i **- 6.96 km, 9.1 mlrd**



4 HUDUD VA LOYIHA MASTER-REJASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Loyihaning investitsiya qiymati -
534,75 mlrd so'm
Davlat byudjetidan kutilayotgan mablag’,
105,0 mlrd so'm (muhandislik tarmoqlari uchun)
Davlat byudjetiga yillik soliq tushumlari -
19,2 mlrd so'm

5 MASTER REJA HUDUDINING SHAHAR TUMAN MARKAZLARIGA NISBATAN JOYLASHUVI

Toshkent sh. <---**210 km**---> Namangan sh
Namangan sh. <---**50 km**---> Master reja hududi
Farg`ona sh. <---**78 km**---> Master reja hududi
Andijon sh. <---**135 km**---> Master reja hududi
Guliston MFY <---**2.3 km**---> Master reja hududi

6 MASTER REJADAN KUTILAYOTGAN IQTISODIY-IJTIMOIY KO'RSATKICHLAR

Yangi ish o'rni - **1020 ta**
Yillik tashrif buyuruvchilar soni **0.7 - 0.9 mln**
Sayyohlar oqimi mavsumiyligi **8-9 oy**
Noeffektiv yerlarni samaralashtirish - **40 %**
Hududning aktiv aholi qatlami (ishga jalb qilsa bo’ladigan)- **30-35%**


MAVJUD YO‘L-TRANSPORT INFRATUZILMASI

Chodak dam olish hududi transport va logistika jihatidan qulay joyda joylashgan. Pop tuman markazidan asfalt yo‘llar orqali bemalol yetib boriladi, jamoat transporti ham mavjud. Yaqinida Pop temiryo‘l stansiyasi bo‘lgani uchun yuk va turist oqimini ta’minlash oson. Hududga oziq-ovqat, qurilish materiallari va boshqa xizmatlar Pop markazi orqali tez yetkaziladi. Kelajakda yo‘llarni yaxshilash, parkovka kengaytirish va maxsus turist avtobuslarini yo‘lga qo‘yish orqali imkoniyatlarni yanada kengaytirish mumkin.
Yo‘llar master rejada iqtisodiy, ijtimoiy va transport tizimining asosiy elementlari sifatida katta ahamiyatga ega. Ular hududning ichki va tashqi aloqalarini ta'minlash, transport oqimlarini samarali boshqarish, shahar va tumanlar o‘rtasida uzviy bog‘lanishlarni yaratish uchun zarurdir.







QO‘SHIMCHA 2 DARAJALI YO‘LLAR TAMIR TALAB, ULARNING TAQRIBIY UZUNLIGI **3 KM** TASHKIL QILGAN VA ULARNING **70%** ASFALT QILINMAGAN.








Chodak dam olish hududi transport va logistika bo‘yicha qulay:
Pop markazidan masofa **~18–20 km**, bu mashinada **20–25 daqiqa** yo‘l.
Namangandan masofa **~75–80 km**, vaqt **1–1,2 soat**.
Yo‘llarning **70–80%** qismi asfaltlangan, qolgan qismi tor tog‘ yo‘llari.
Har kuni Pop → Chodak yo‘nalishida taxminan **15–20 ta** marshrut taksi qatnaydi.
Pop temiryo‘l stansiyasi hududga **10–12 km** masofada, yuk va turist oqimini tez ta’minlaydi.
Hududga kundalik kerakli mahsulotlarning **90%** Pop markazi orqali 1 soatdan kam vaqtda yetkazilishi mumkin.
Kelajakda transport oqimi **30–40%** oshsa ham, yo‘llarni kengaytirish va parkovka maydonlarini ko‘paytirish orqali qulaylikni ushlab turish mumkin.

YO‘L-TRANSPORT INFRATUZILMASI





ASOSIY YO`LNING **80%** YAQIN O`TMISHDA TAMIRLANGAN UNING UMUMIY UZUNLIGI **7 KM**

HOZIRGI KUNDA PIYODALAR YO‘LAGI VA VELO YO‘LAKALAR MAVJUD EMAS. PIYODALAR OQIMI AVTOMOBIL YO‘LIDAN FOYDALANILADI.

2.5. TURIZM TURLARINI FUNKSIONAL BO`LINISH SXEMASI

1. Ekoturizm – 15%
•Tog‘ sayyohligi
•O‘rmon va tabiat qo‘riqxonalari bo‘ylab marshrutlar
•Piknik va dam olish zonalari

2. Rekreatsion turizm – 18%
Dam olish maskanlari
Sanitariya–sog‘lomlashtirish zonalari
SPA, sport, fitnes hududlari

3. Madaniy-meros turizmi – 12%
•Tarixiy obidalar
•Muzeylar, madaniy markazlar
•Mahalliy an’analarni tanishtirish faoliyati

4. Sarguzasht va ekstremal turizm – 34%
Velomarshrutlar
Off-road, zipline, trekking
Qor va suv sport turlari

5. Oilaviy va ko‘ngilochar turizm – 10%
•Atraksionlar
•Bolalar o‘yin maydonchalari
•Oila uchun xizmat ko‘rsatish zonalari

